



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

Elektron nashr. 203 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition.....	14
Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu	
Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience.....	20
Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova	
Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления.....	26
Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич	
Startup проекты и их реализация	30
Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна	
Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches	34
Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna	
Государственный кредит и государственный долг.....	37
Срождидинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Сравнительный анализ реформ государственных финансов в Китае и Грузии: уроки для Узбекистана	42
Срождидинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи	
Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish	49
Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich	
Sustainable consumption and production: economic challenges and solutions.....	55
Abdullayev Abdug'ofur, Abdubaxromov Abduazim, Eshniyozov Ozodbek, Azizbek Abdullayev	
Traffic congestion in Uzbekistan: causes and strategic solutions	60
Abdulloh Qodirov, Imron Egamberdiyev, Isomiddin Ravshanov, Munisa Bekmirzayeva	
The relationship between corruption and economic growth.....	64
Jurayev Jo'rabek, Abdullayeva Aziza, Mamatova Sarvinoz, Maha Ibrahim	
Crisis management in the tourism industry	74
Ikromova Munisa, Bahodirova Mohigul, Xalimova Dilbar, Abdullajonova Muslimabonu	
Impact of the touristic indicators on the poverty rate.....	80
Abdumanova Maftuna, Azizova Ruhshona, Shavkatova Mubiyabonu, Durdona Bahodirova	
Bringing sustainability: the role of the green economy in enhancing resource efficiency	91
Salokhiddinova Farangiz, Mardonov MuhammadYusuf, Shovkiyeva Munisa, Ahmadova Xurshida	
The relationship between innovation and environmental emissions.....	98
Mamadiyeva Ruxshona, Nurullayev Asliddin, Abduraimov Sardor Anvar o'g'li, Aysayeva E'zoza	
Green finance unlocked: innovations, challenges in Uzbekistan's perspectives.....	107
Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna, Jamolova Madina Talgatovna, Lola Qidiralieva Ulug'bekovna	
Turning the tide: how Uzbekistan can tackle its water crisis	115
Rixsiboyev Mirhaydar, Orazov Kamron, Baratov Shakhriyor, Bahromjon Urmanov	
Drivers and losses of economic development of Tashkent: a desk study.....	125
Zaribbaeva Komila Ulugbek qizi, Durdona Davletova	
The digital economy in Uzbekistan: challenges and opportunities.....	133
Ro'zmatov Asror, Bo'riyev Javohir, Safarov Habibullo, Mubina Toirova	
Analysis of water consumption in Uzbekistan	139
Rayimjonova Gulsora, Sarvinoz Murodova, Yahyoyeva Nurhayo, Durdona Zaynutdinova	



Global leadership and cross-cultural management: an empirical analysis of intercultural communication competence (icc) in uzbekistan	144
Dr. Eka Surchman, ST, MT, Annisa ciptagustia, SE, M.SI, Abdurakhmanova Iroda Gulmurod qizi	
iqtisodiy masalalarni matritsa nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish	154
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni	167
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
Рост зеленой экономики во всем мире	172
Баймурадова Зилола Алишеровна, Бобуржон Бахриддинович Избосаров	
Raqamli iqtisodiyotda soliq boshqaruvining transformatsiyasi: soliq tizimining avtomatlashtirilishi samarasi	181
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Problems and prospects of developing small business in uzbekistan under the conditions of a green economy	187
Baymuradova Zilola Alisherovna, Boburjon Bahriddinovich Izbosarov	
Turizm va mehmondo'stlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri	197
Anvarova Muhsinaxon Otabek qizi	



TURIZM VA MEHMONDO'STLIKNING MAMLAKAT IJTIMOIIY- IQTISODIY TARAQQIYOTIGA TA'SIRI



Anvarova Muhsinaxon Otabek qizi

Namangan davlat universiteti

Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Orcid: 0009-0008-9033-9951

E-mail: anvarovamuhsinaxon@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada turizm va mehmondo'stlik sohalarining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi roli, barqaror taraqqiyotga qo'shgan hissasi va bu sohalar orqali yaratilgan imkoniyatlar har tomonlama tahlil qilingan. Ekoturizm, agroturizm va madaniy turizm turlari alohida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda turizmni rivojlantirish borasidagi davlat siyosati, mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar tahlil qilinib, xalqaro tajribaga asoslangan tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, mehmondo'stlik, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, barqaror rivojlanish, ekoturizm, xizmatlar sohasi, turizm siyosati, investitsiyalar, hududiy rivojlanish, O'zbekiston turizmi.

Abstract: This scientific article comprehensively analyzes the role of tourism and hospitality in the socio-economic development of the country, their contribution to sustainable progress, and the opportunities created through these sectors. Types of ecotourism, agritourism, and cultural tourism are examined separately. Based on the research results, the state policy on tourism development in Uzbekistan, existing problems, and promising directions are analyzed, and recommendations based on international experience are proposed.

Key words: Tourism, hospitality, socio-economic development, sustainable development, ecotourism, service sector, tourism policy, investments, regional development, tourism in Uzbekistan.

Аннотация: В данной научной статье всесторонне проанализирована роль туризма и гостеприимства в социально-экономическом развитии страны, их вклад в устойчивое развитие, а также возможности, создаваемые в этих сферах. Отдельно рассмотрены виды экотуризма, агротуризма и культурного туризма. На основе результатов исследования проанализирована государственная политика в сфере развития туризма в Узбекистане, существующие проблемы и перспективные направления, предложены рекомендации на основе международного опыта.

Ключевые слова: Туризм, гостеприимство, социально-экономическое развитие, устойчивое развитие, экотуризм, сфера услуг, туристическая политика, инвестиции, региональное развитие, туризм в Узбекистане.

KIRISH

So'nggi yillarda turizm va mehmondo'stlik sohasi butun dunyoda eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan tarmoqlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu sohalar nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi omillar, balki ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlovchi muhim yo'nalishlar sirasiga kiradi. Turizm -bandlik darajasini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va madaniyatlararo almashinuvni kengaytirish orqali ko'plab davlatlarda strategik ahamiyatga ega bo'lgan vositaga aylangan.

BMT Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO, 2024-yil 11-may) ma'lumotlariga ko'ra, turizm global yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etadi va har yili 1 milliarddan ortiq sayyoh xalqaro miqyosda harakatlanmoqda.



O'zbekistonda ham turizm strategik ahamiyatga ega tarmoq hisoblanadi. Boy tarixiy meros, madaniy xilma-xillik, tabiiy resurslar mavjudligi va davlat siyosatida amalga oshirilayotgan ijobiy islohotlar mazkur sohaning jadal rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Shu jihatdan, ushbu maqolada turizm va mehmondo'stlik sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni, barqarorlikka ko'rsatayotgan ta'siri, xalqaro tajriba bilan solishtirma tahlili hamda istiqbolli yo'nalishlari atroflicha yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda turizm va mehmondo'stlik sohalari global miqyosda iqtisodiy o'sish, bandlik, investitsiyalar va infratuzilma rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlangan.

O'zbek olimlari tomonidan ham ushbu sohaga oid tadqiqotlar olib borilgan. Ganieva o'z asarida turizm iqtisodiyotiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni, xususan valyuta tushumlari va bandlikni tahlil qiladi. Azizxo'jaeva esa turizmning barqaror rivojlanishga ta'siri, ekologik xavfsizlik va madaniy merosni saqlashdagi o'rnini ta'kidlaydi. Shuningdek, Reformatics va UNDP tomonidan 2023-yil ishlab chiqilgan "Integrated Tourism Development Strategy-Uzbekistan 2030" hujjatida sohaning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlarini chuqur tahlil qilingan.

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turizm va mehmondo'stlik sohasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim strategik sektor hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

Tahliliy-uslubiy yondashuv orqali xalqaro va milliy tajribalar solishtirildi.

Rasmiy statistik ma'lumotlar (UNWTO, 2024-yil 11-may; World Bank, 2024-yil 17-fevral; OECD, 2024-yil 4-aprel) asosida turizmning yalpi ichki mahsulotga ta'siri, bandlik darajasi va valyuta tushumlari chuqur tahlil qilindi.

Davlat dasturlari hamda "Yangi O'zbekiston-2030" strategiyasi¹ doirasidagi istiqbolli loyihalar o'rganilib, ularning soha rivojiga ta'siri baholandi.

Mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari xalqaro ilg'or tajriba asosida asoslangan holda taklif qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida turizm va mehmondo'stlik sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'rsatayotgan ta'siri xalqaro va milliy tajribalar asosida kompleks tarzda tahlil qilindi. Xususan, iqtisodiy (yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, bandlik darajasi, valyuta tushumlari), ijtimoiy (gender tengligi, madaniy merosni asrash, mahalliy aholining integratsiyasi) hamda ekologik (resurslardan oqilona foydalanish, salbiy ekologik ta'sirlarni boshqarish) mezonlar asosida baholash ishlari amalga oshirildi.

Ushbu baholashlar doirasida Ispaniya, Turkiya, Tailand, Norvegiya va Kosta-Rika kabi ilg'or tajribaga ega davlatlar misolida O'zbekiston tajribasi taqqoslab o'rganildi. Quyidagi jadvallarda taqdim etilgan ushbu taqqoslamalarning umumlashtirilgan natijalari asosida O'zbekistonda turizm sektorini barqaror rivojlantirish imkoniyatlari hamda mavjud kamchiliklar aniqlab berildi. (1-jadval)

1-jadva. Turizm sohasi iqtisodiy ko'rsatkichlarining xalqaro va O'zbekiston tajribasi bo'yicha tahlili

Mezon	Xalqaro tajriba (Ispaniya, Turkiya, Tailand)	O'zbekiston tajribasi
YIMdagi ulushi	10-15% (masalan, Turkiyada-11.3%)	3-5% atrofida, barqaror o'sish kuzatilmoqda
Valyuta tushumi	Asosiy eksport yo'nalishlaridan biri	Rivojlanib borayotgan, cheklangan
Bandlik	Millionlab ish o'rinlari	300 mingdan ortiq ish o'ri, xususi sektorida
Tadbirkorlik	Kichik biznes kuchli	Oilaviy mehmondo'stlik va hunarmandchilik kengaymoqda

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "Yangi O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/6428174>



Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ilg'or turistik davlatlarda turizm sohasi iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 10-15 foiz oralig'ida baholanmoqda. Jumladan, Turkiyada ushbu ko'rsatkich 11,3 foizga yetgan bo'lsa, Tailandda 12,5 foizni tashkil etadi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich hozircha 3-5 foiz atrofida bo'lib, ushbu yo'nalishda ijobiy dinamikani kuzatish mumkin. So'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasida mamlakatda turizmning iqtisodiy salohiyati sezilarli darajada ortmoqda.

Xorijiy valyuta tushumlari jihatidan esa O'zbekiston hali mavjud to'liq salohiyatdan to'liq foydalana olmayotgani yo'q. Raqobatbardosh xizmatlar eksporti va diversifikatsiyalangan sayyohlik mahsulotlari borasida muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, ularning hajmi global miqyosdagi yetakchi davlatlar bilan solishtirganda hanuz cheklanganligicha qolmoqda. Bu esa mamlakatda turizm sohasida marketing siyosatini takomillashtirish, xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bandlik ko'rsatkichi ham turizmning iqtisodiy ta'sirini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida turizm sohasi bevosita va bilvosita millionlab ish o'rinlarini yaratmoqda. O'zbekistonda esa, ayniqsa, xususiy sektor, oilaviy mehmon uylari, hunarmandchilik va mahalliy xizmat ko'rsatish tarmoqlari doirasida 300 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratilgani mazkur soha rivojiga bo'lgan ishonchni mustahkamlab bormoqda. Bu holat, o'z navbatida, ishsizlik darajasining qisqarishiga va aholining real daromadlarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot mualliflari fikricha, kichik biznes va oilaviy mehmondo'stlikni rivojlantirish orqali turizm sohasi iqtisodiyotning turli tarmoqlari bilan integratsiyalashib, resurslardan samarali foydalanishga hamda hududiy barqarorlikka xizmat qiluvchi kuchli mexanizmga aylanishi mumkin. Bu borada davlat tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy rag'batlar, soliq va kredit imtiyozlari, shuningdek, ta'lim hamda malakali kadrlar tayyorlash tizimi muhim rol o'ynamoqda. (2-jadval)

2-jadval. Ijtimoiy ta'sir -xalqaro va milliy tajriba

Mezon	Xalqaro tajriba	O'zbekiston tajribasi
Mahalliy aholi bandligi	Maxsus kurslar, xizmat ko'rsatish malakalari	Mehmondo'stlik maktablari tashkil etilgan
Gender tengligi	Ayollar ishtiroki yuqori (Ispaniyada 60%)	Ayollar asosan oilaviy turizmga faol
Madaniyatni asrash	Milliy festival va san'atlarni qo'llab-quvvatlash	Ijobiy qadamlar tashlangan
Aholi bilan integratsiya	Sayyohlik infratuzilmasi aholi ehtiyojlariga ham xizmat qiladi	

Turizmning ijtimoiy ta'siri ko'plab sohalarida bevosita namoyon bo'lmoqda. Xalqaro tajribada, ayniqsa rivojlangan turistik davlatlarda, turizm sohasiga mahalliy aholini keng jalb etish tizimlashtirilgan bo'lib, maxsus o'quv kurslari orqali xizmat ko'rsatish madaniyati, mehmondo'stlik etikasi hamda xorijiy til bo'yicha zarur malakalar shakllantirilgan. O'zbekistonda ham mehmondo'stlik maktablari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, ularning qamrovi hozircha cheklangan bo'lib, barcha hududlarni to'liq qamrab olmagan.

Gender tengligi masalasida xalqaro tajriba ayollarni turizm sektoriga keng jalb etish orqali ularning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlayotganini ko'rsatadi. Masalan, Ispaniyada ayollar ishtiroki 60 foizdan ortiqni tashkil etmoqda. O'zbekistonda esa ayollar asosan oilaviy mehmon uylari, pazandalik va hunarmandchilik kabi an'anaviy yo'nalishlarda faoliyat yuritmoqda. Bu jihatdan ayollarning rasmiy va yirik turizm tizimlariga kengroq jalb etilishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Madaniy merosni saqlashda turizm kuchli vosita sifatida xizmat qilmoqda. Xalqaro amaliyotda milliy festivallar va san'at turlarining iqtisodiyashtirilgan holda rivojlanayotgani kuzatilmoqda. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda ijobiy qadamlar tashlanmoqda. Xususan, ziyorat turizmi, folklor festivallari va gastronomik sayohatlar orqali madaniy qadriyatlar tiklanmoqda va ommalashmoqda.

Aholi bilan integratsiya masalasi esa ijtimoiy barqarorlik hamda turizmning uzoq muddatli rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plab xorijiy mamlakatlarda sayyohlik infratuzilmasi (transport, aloqa, xizmatlar) nafaqat sayyohlar, balki mahalliy aholi uchun ham qulaylik yaratadi. O'zbekistonda esa ayrim hududlarda turizm va mahalla o'rtasidagi uzviy aloqa yetarli darajada emas. Shu sababli, muallif fikricha, turizm jarayonlarini mahalliy jamoalar hayotiga chuqur integratsiya qilish-ushbu sohaning ijtimoiy asoslarini mustahkamlash, aholining unga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish hamda barqaror rivojlanishga erishishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. (3-jadval)



3-jadval. Ekologik ta'sir - xalqaro va milliy tajriba

Mezon	Xalqaro tajriba (Norvegiya, Kosta-Rika)	O'zbekiston tajribasi
Ekoturizm va barqarorlik	Kuchli siyosat, soliq va ruxsatnomalar mavjud	Yangi shakllanmoqda
Resurslardan foydalanish	Ekologik me'yorlar asosida	Chiqindi va suv muammolari mavjud
Atrof-muhit muhofazasi	Yashil energetika, bioxilma-xillikni asrash	Qo'riqxonalar va bog'larda ishlar olib borilmoqda
Zararli ta'sirni nazorat	Monitoring, kvotalar mavjud	Nazorat zaif, bosim seziladi

Ushbu jadvalda turizmning ekologik ta'siriga doir mezonlar xalqaro ilg'or tajriba hamda O'zbekiston amaliyoti asosida tahlil qilingan. Norvegiya va Kosta-Rika kabi davlatlar ekologik barqarorlikni turizm siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirgan bo'lib, bu mamlakatlarda ekoturizm qat'iy ruxsatnomalar, ekologik soliqlar hamda sertifikatlash tizimi orqali tartibga solinadi. O'zbekistonda esa ekoturizm sohasi endigina shakllanmoqda. So'nggi yillarda ekoturizm zonalarining huquqiy va funksional asoslarini ishlab chiqish bo'yicha muhim qadamlar tashlangan bo'lsa-da, ushbu yo'nalish hali to'liq tizimlashtirilmagan.

Resurslardan foydalanish bo'yicha xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ekologik me'yorlar asosida suv, energiya va chiqindilarni boshqarish samarali yo'lga qo'yilgan. Masalan, Kosta-Rika davlatida har bir turistik obyekt "yashil sertifikat" asosida faoliyat yuritadi. O'zbekistonda esa suv va chiqindilar bilan bog'liq infratuzilma muammolari hanuzgacha dolzarb bo'lib qolmoqda. Jumladan, mashhur sayyohlik maskanlarida axlat to'plash, chiqindilarni utilitatsiya qilish va suv tejash texnologiyalarini joriy etish yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Atrof-muhit muhofazasi yo'nalishida ham xorijiy tajriba o'z samarasini bermoqda. Norvegiya va Kosta-Rika ekologik toza transport vositalaridan foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, shuningdek, bioxilma-xillikni saqlash kabi jihatlari bo'yicha ilg'or mamlakatlar sirasiga kiradi. O'zbekistonda esa ayrim qo'riqxonalar va milliy bog'larda ekologik yo'nalishdagi loyihalar amalga oshirilmoqda, biroq ularning ko'lam va hududiy qamrovi hali yetarli emas.

Zararli ta'sirlarni nazorat qilish borasida xorijiy mamlakatlarda monitoring tizimlari, kvotalar va jamoaviy nazorat mexanizmlari samarali faoliyat yuritmoqda. O'zbekistonda esa turizmning tabiiy resurslarga bo'lgan bosimi ortib borayotganiga qaramay, ekologik monitoring va prognozlash tizimlari hali yetarli darajada rivojlanmagan.

Tadqiqot mualliflari fikricha, O'zbekistonda ekoturizm va ekologik boshqaruvni rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlar alohida e'tiborga loyiq:

- ekologik standartlarni ishlab chiqish va ularni majburiy tarzda joriy etish;
- "yashil turizm" dasturlarini ishlab chiqish va rag'batlantirish;
- mahalliy jamoalarni ekologik nazorat jarayonlariga jalb etish;
- zamonaviy monitoring texnologiyalarini (dronlar, sensorlar, GIS tizimlari) turizm infratuzilmasiga integratsiyalash.

Ushbu chora-tadbirlar nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi, balki turizm sohasining uzoq muddatli va izchil rivojlanishiga ham zamin yaratadi.

O'rganilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, turizm va mehmondo'stlik sohalari zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda ko'p funksiyali va integrativ rol o'ynaydi. Ular nafaqat yalpi ichki mahsulotga hissa qo'shuvchi tarmoq sifatida, balki bandlikni ta'minlash, madaniy merosni asrash, ayollar va yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, hamda hududiy nomutanosibliklarni kamaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xalqaro tajribada ushbu sohalar uzoq muddatli strategik yondashuvlar asosida shakllangan: infratuzilma bilan uyg'unlashgan rejalashtirish, ekologik va ijtimoiy barqarorlik tamoyillariga asoslangan boshqaruv, jamoatchilik ishtiroki va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali yuqori samaradorlikka erishilgan. O'zbekiston bu yo'nalishda dastlabki ijobiy natijalarga erishgan bo'lsa-da, hali oldinda yechimini kutayotgan tizimli masalalar mavjud: xizmatlar sifatining pastligi, transport-logistika infratuzilmasining nomuvofiqligi, malakali kadrlar yetishmasligi, ekotizim monitoringi va turizm resurslarining haddan tashqari bosim ostida qolishi shular jumlasidandir.

Ekologik aspektda esa barqaror turizmni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan me'yoriy-huquqiy bazani kuchaytirish, yashil energiya va chiqindilarni boshqarish texnologiyalarini joriy etish, mahalliy hamjamiyatlarning ishtirokini rag'batlantirish muhimdir. Raqamli transformatsiya sharoitida AI, Big Data, GIS texnologiyalarini turizm



boshqaruvida qo'llash orqali tahliliy salohiyatni oshirish mumkin. Xususan, turistlar oqimini modellashtirish, xizmat sifatini real vaqtda kuzatish, ekologik yuklamani bashorat qilish kabilar sektorni ilmiy asosda rivojlantirish imkonini beradi.

Shu bois, muallif tomonidan ilgari surilgan yondashuv shundan iboratki, O'zbekiston sharoitida turizmni rivojlantirish bir yoqlama "turistik oqimni oshirish" emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning kompleks elementi sifatida qaralishi lozim. Davlat siyosati, raqamli texnologiyalar, inson kapitali va barqarorlik mezonlarini uzviy bog'lash orqali uzoq muddatli ta'sirga erishish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar hamda xalqaro va milliy tajribalarning solishtirma o'rganilishi asosida quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi:

Iqtisodiy jihat. Turizm va mehmondo'stlik sohalari iqtisodiyotning drayveri sifatida yalpi ichki mahsulotdagi ulush, bandlik darajasi va valyuta tushumlarini oshirish orqali O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ushbu soha ayniqsa xususiy sektor va oilaviy tadbirkorlik asosida jadallik bilan kengaymoqda.

Ijtimoiy jihat. Turizm ayollar va yoshlarni bandlikka jalb etish, madaniy merosni saqlash, hududlararo tafovutlarni kamaytirish hamda ijtimoiy integratsiyani ta'minlash vositasi sifatida muhim rol o'ynamoqda. Bu holat turizmni ijtimoiy inklyuzivlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Ekologik barqarorlik. Ekoturizm imkoniyatlari hali to'liq ishga solinmagan bo'lsa-da, mavjud salohiyatdan samarali foydalanish orqali yashil iqtisodiyotga o'tishda turizm strategik sektor sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu sababli, ekologik me'yorlarni kuchaytirish, chiqindilarni boshqarish va "yashil texnologiyalar"ni joriy etish dolzarb masalalardan biridir.

Raqamli transformatsiya. Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm sohasida sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data), mobil ilovalar va onlayn platformalarni keng qo'llash xizmatlar sifatini oshiradi, tashrifchilar tajribasini yaxshilaydi va soha boshqaruvining samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Strategik yondashuv sifatida O'zbekistonda turizm siyosatini hududiy rivojlanish, ekologik boshqaruv, xalqaro integratsiya va jamoatchilik ishtiroki bilan uyg'unlashtirish orqali sohani barqaror va samarali rivojlantirish mumkin.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Turizmni kompleks rivojlantirish modeli asosida boshqarish, ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlash;

Hududiy klasterlar va infratuzilmaviy loyihalarni davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida amalga oshirish;

Ekologik muvozanatni saqlash va madaniy merosni asrashga qaratilgan davlat dasturlarini kengaytirish;

Raqamli ekotizimlarni shakllantirish: integratsiyalashgan onlayn servislar, interaktiv sayyohlik xaritalari, real vaqti ma'lumotlar asosida tahlil yurituvchi tizimlarni joriy etish;

Kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimini zamonaviy bozor ehtiyojlari va global me'zonlarga muvofiq holda moslashtirish.

Mazkur chora-tadbirlar turizm sohasining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatdan ham barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, O'zbekistonning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Azizxo'jaeva, D. (2020). Barqaror rivojlanish va turizm. Samarqand: SamDCHTI nashriyoti.
2. Ganieva, M. (2022). Turizm iqtisodiyoti asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
3. IT Park Uzbekistan. (2024). Raqamli transformatsiya va turizm. <https://it-park.uz>
4. OECD. (2023). Tourism Trends and Policies 2023. Organisation for Economic Co-operation and Development. <https://www.oecd.org>
5. Qodirov, B., & Abdullayeva, Z. (2021). Turizm sohasida marketing va menejment. Toshkent: Iqtisodiyot va xizmat nashriyoti.
6. Reformatics & UNDP Uzbekistan. (2023). Integrated Tourism Development Strategy – Uzbekistan 2030.
7. Stat.uz. (2024). Turizm statistikasi bo'yicha maxsus byulleten, I–IV chorak. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. <https://stat.uz>
8. The Economist Intelligence Unit. (2023). Global Travel Trends and Risks. <https://www.eiu.com>
9. Turobova, M. (2023). O'zbekistonda hududiy turizm klasterlarini rivojlantirish istiqbollari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, (2), 45–50.
10. UNEP. (2022). Sustainable Tourism and Climate Action. United Nations Environment Programme. <https://www.unep.org>
11. UNWTO. (2024). Tourism Highlights: 2024 Edition. World Tourism Organization. <https://www.unwto.org>



12. World Bank. (2024). World Development Indicators: Tourism contribution to GDP and employment. <https://databank.worldbank.org>
13. World Economic Forum. (2023). Travel & Tourism Development Index 2023. <https://www.weforum.org>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023–11–sentabr). “Yangi O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida” gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/6428174>
15. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi. (n.d.). Rasmiy veb sayt. <https://uzbektourism.uz>
16. Baxriddinovna, T. N. (2024). Turizmni rivojlantirishning xorijiy tajribasi. Science and Innovation, 3(Special Issue 28), 830–833.
17. Baxriddinovna, T. N. (2024). O'zbekistonda xalqaro turizmning rivojlanish tendensiyalari va turistik salohiyati. Science and Innovation, 3(Special Issue 46), 578–580.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
